

## O'ZBEKISTONDA UY-JOY SIYOSATINING MILLIY MODELINI YARATISH OMILLARI

Baymatov Alisher Kaxramonovich

Termiz davlat pedagogika instituti "Falsafa va ma'naviyat asoslari" kafedrası o'qituvchisi

**ANNOTATSIYA.** O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan tub islohotlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini rivojlantirishga zamin yaratmoqda. Bu jarayonda aholini mahalliy talablarga javob beradigan sifatli va arzon uy-joylar bilan ta'minlash, uy-joy sektorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar uchun shart-sharoitlar yaratishga va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, keyingi yillarda uy-joy siyosatiga e'tibor kuchayishi natijasida shahar va qishloqlarda uy-joy qurilishi ko'lami kengaydi. Bu o'zgarishlarlar aholining uy-joyga bo'lgan talabini qondirishga yordam bermoqda. Lekin uy-joy siyosatini milliy model asosida yuritish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada uy-joy siyosatining milliy modelini yaratish shart-sharoitlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** uy-joy muammosi, qishloq, shahar, Uy-joy kodeksi, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari, milliy mentalitet, investitsiya

## FACTORS OF CREATING A NATIONAL MODEL OF HOUSING POLICY IN UZBEKISTAN

Baymatov Alisher Kaxramonovich

Termiz State Pedagogical Institute, Teacher of the «Fundamentals of Philosophy and Spirituality» department

**ABSTRACT.** The fundamental reforms implemented in Uzbekistan in recent years are creating a basis for the development of the country's socio-economic and cultural life. In this process, special emphasis is placed on providing the population with quality and affordable housing that meets local requirements, state support for the housing sector, creating conditions for enterprises specializing in the production of building materials and state support attention is being paid. In particular, as a result of increased attention to housing policy in recent years, the scale of housing construction in cities and villages has expanded. These circumstances help to meet the demand of the population for housing. However, conducting the housing policy based on the national model is becoming an urgent task. This article analyzes the conditions for creating a national model of housing policy.

**Keywords:** housing problem, village, city, Housing Code, «Prosperous village» and «Prosperous neighborhood» programs, national mentality, investment

## ФАКТОРЫ СОЗДАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ЖИЛИЩНОЙ ПОЛИТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Байматов Алишер Кахрамонович

Термезский государственный педагогический институт, Преподаватель кафедры «Основы философии и духовности»

**АННОТАЦИЯ.** Кардинальные преобразования, осуществленные в Узбекистане за последние годы, создают основу для развития социально-экономической и культурной жизни страны. В этом процессе особое внимание уделяется обеспечению населения качественным и доступным жильем, отвечающим местным требованиям, государственной поддержке жилищной сферы, созданию условий для предприятий, специализирующихся на производстве строительных материалов, государственной поддержке. В частности, в результате повышенного внимания к жилищной политике в последние годы расширились масштабы жилищного строительства в городах и селах. Эти изменения помогают удовлетворить спрос населения на жилье. Однако проведение жилищной политики на основе национальной модели становится актуальной задачей. В данной статье анализируются условия создания национальной модели жилищной политики.

**Ключевые слова:** жилищная проблема, деревня, город, Жилищный кодекс, Программы «Благополучное село» и «Благополучный район», национальный менталитет, инвестиции

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION).** Aholini uy-joy bilan ta'minlash muammosi nafaqat O'zbekistonda, balki dunyoning boshqa davlatlarida ham katta ahamiyatga ega. Masalan, Rossiya Federatsiyasida aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash uchun turli uy-joy dasturlari ishlab chiqilmoqda. Misol uchun, 2002-yilda qabul qilingan eng uzoq tarixga ega bo'lgan "Uy-joy"

federal dasturi va uning tarkibiy bosqichlari bo'lgan "Yosh oila", "Rossiya oilasi uchun uy-joy" va boshqa kichik dasturlari ishlab chiqilib hayotga tadbiriq qilinmoqda [7].

O'zbekiston Respublikasida ham uy-joy qurilishi davlat siyosati darajasida ko'tarilganini Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021-yilda "Yangi O'zbekiston" gazetasi muhbirining savollariga bergan quyidagi javoblardan bilib olishimiz mumkin: "Mamlakatimizda keyingi yillarda zamonaviy uy-joylar qurish bo'yicha yangi davr boshlandi, deb bemalol aytish mumkin.... Biz o'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsad – xalqimizni rozi qilish yo'lidagi ulkan vazifalar, islohotlarimiz, qolaversa, bugungi hayotning o'zi zamonaviy uy-joylar qurish sur'ati va sifatini yana-da oshirishni talab etmoqda..... Barcha hududlarimizda aholi uchun qulay va shinam, barcha zamonaviy sharoitlarga ega bo'lgan uy-joylar barpo etilmoqda. Ipoteka bozori rivojlanmoqda. Hayotimizga "arzon uy-joylar", "aqli uy", "aqli shahar", "raqamli xizmatlar" degan yangi tushuncha va ko'nikmalar kirib kelmoqda. Kelgusida uy-joy fondini shunday darajaga olib chiqishimiz kerakki, aholining barcha qatlamlari uy-joy sotib olish va bu borada tanlash imkoniga ega bo'lishi lozim." [1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Uy-joy siyosati tarixini tadqiq qilgan Yu.V. Chugunova va ko'plab rus olimlar o'z maqolalarida, arzon uy-joy qurilishi hamon asosiy masalalardan biri bo'lib qolayotganini ta'kidlaydi. O'zbekistonda ham uy-joy siyosatini o'rganilishiga katta e'tibor qaratilmoqda. N. Matyaqubov, M.Rajabova, I.Davletov va boshqa olimlar o'z maqolalarida uy-joy siyosati haqida turli ilmiy qarashlarni ilgari suradilar.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan uy-joy va uy-joy qurilishiga aktual vazifa sifatida qaratilmoqda. Uy-joy muammosini hal qilish, uy-joy qurilishi tuzilmasini takomillashtirishning ilg'or yondashuvlaridan foydalangan holda qurilish hajmini sezilarli darajada oshirish hamda O'zbekiston shahar va tumanlar infratuzilmasining barcha elementlarini rivojlantirish borasida bir qator rasmiy hujjatlar qabul qilindi. 07.05.1993-y. «Davlat uy-joy fondini xususiyashtirish to'g'risida»gi, 12.04.2006-y «Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida» qarorlari qabul qilindi. 1998-yil 24-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining uy-joy kodeksi"ning qabul qilinishi uy-joy bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni belgilab berdi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyatini rivojlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» (26.02.2002-y. PF-3038- sonli) Farmoni, «Uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» (10.02.2005-y. PQ-3-sonli), «Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» (16.02.2005-y. PQ-10-sonli), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida davlat uy-joy fondini xususiyashtirishni davom ettirish to'g'risida» (01.03.1993-yil 114-sonli) qarorlari va boshqalar me'yoriy hujjatlar uy-joy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi [4].

MUHOAKAMA VA NATIJALAR (ОБСУЖДЕНИЕ\DISCUSSION). O'zbekiston aholisining o'sish sur'atlari yuqori bo'lishiga qaramay uy-joy qurilishi barqaror o'sib bormoqda. Uy-joy qurish va ta'mirlash ko'lamini, birinchi navbatda, ipoteka krediti asosida kengaytirmoqda, bu esa aholi jon boshiga uy-joy bilan ta'minlash darajasi oshirdi. 1991-yilda aholi jon boshiga 12,4 kvadrat metr to'g'ri kelgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich 15,2 kvadrat metrga yetib, 1,2 barobar o'sdi. 2009-2015-yillarda O'zbekistonda 70,2 mln kv.m uy-joy foydalanishga topshirildi, shundan 51,2 mln. kv.m qishloq hududi va 19 mln. kv.m. shaharga mos keladi. 2009 yildan boshlab uy-joy qurilishi hajmi barqaror ijobiy dinamikaga ega bo'ldi va 1,6 barobar oshdi [6.]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2016 yil 21-oktabrdagi PQ-2639-son Qarorlariga asosan "2017-2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon turar-joy binolari qurish dasturi to'g'risida", 2016 yil 22-noyabrdagi PQ-2660-son "2017-2020-yillarda shaharlarda arzon ko'p qavatli uylar qurish va rekonstruksiya qilish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" va 2018 yil 24-noyabrdagi PQ-4028-son "Qishloq joylarda va fuqarolarning ayrim toifalari uchun arzon turar joy binolari qurishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", shuningdek, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari asosida mamlakatimizda aholi sonining barqaror o'sishiga qarab shahar va qishloqlarda arzon uy-joylar qurish ishlari yana bir pog'onaga ko'tarildi [5].

Ta'kidlash joizki, yangi namunaviy loyihalar bo'yicha shinam turar-joy binolarini qurishda milliy mentalitet va qishloqlarda yashash sharoitining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinib, imtiyozli kreditlashning eng qulay shartlari joriy etilmoqda, bundan tashqari, energiya tejovchi materiallar va uskunalarning yangi turlaridan foydalanish ko'lamini yanada kengaytirilmoqda. Bularning barchasi yangi binolarning narxini pasayishiga, shu bilan birga aholining barcha qatlamlari uchun maqbul narxlar belgilanishiga xizmat qiladi. 2009-2016 yillarda qishloqdagi 1308 massivda umumiy maydoni 9557-9573 ming kvadrat metr bo'lgan 6957 ta shinam uy-joy barpo etildi. 83,5 mingdan ortiq qishloq oilasining uy-joy sharoitlari yaxshilandi. Birgina 2016-yilning o'zida 13 000 ta kalitli uy qurildi. [3] Qishloq joylarda uy-joy qurish loyihalarini

ishlab chiqish shaharlardagi dizayn bilan solishtirganda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, bu uy-joy qurilishini amalga oshirish uchun mo'ljallangan hududni har tomonlama baholash bilan bog'liq. Bu yerda qishloq xo'jaligini tashkil etish, shuningdek, dehqon va fermer xo'jaliklarini joylashtirish masalalari diqqat bilan ko'rib chiqiladi. Ikkinchidan, ob'ektlar qurilish davomida aholini ish bilan ta'minlash, qo'shimcha ish o'rinlari va ijtimoiy infratuzilma tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratildi.

Umuman olganda, O'zbekistonda uy-joy qurilishining milliy modeli quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

qishloq joylarda uy-joy qurilishini jadal rivojlantirish uzoq muddatli strategik ustuvor vazifa hisoblanadi;

uy-joy qurilishini mintaqaviy an'analarga va aholining asosan shaxsiy uy-joyga ega bo'lish mentalitetiga e'tibor qaratiladi;

uy-joy fondiga - yakka tartibdagi uy-joy qurilishining yuqori ulushi va uy-joylarni foydalanishga topshirish hajmi oshiriladi;

uy-joyga bo'lgan talabning shakllanishiga demografik omil (aholi va yosh oilalarning o'sishi, uy xo'jaliklarining tarkibi va tuzilishi) sezilarli darajada ta'sir qiladi.

qishloq joylarda uy-joy qurilishini barqaror rivojlantirish uchun kompleks rag'batlantirish va imtiyozlar tizimi ishlab chiqiladi;

Shu bilan birga, uy-joy muammosiga yechim topish, uy-joy qurilishini nazorat qilish hamda mavjud uy-joy fondidan unumli foydalanish va amaliy ahamiyatini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq, tajribalar shuni ko'rsatadiki, birgina uy-joy fondi tuzilmasini takomillashtirishda uy-joy qurilishi va bozor omillari hisobga olinmayapti. Shu boisdan ham bu murakkab muammoni uy-joy qurilishining aniq tuzilmasini yaratish va uni zamonaviylashtirish asosida hal qilish mumkin. Uy-joy qurilish sohasini zamonaviylashtirish nafaqat tashqi investitsiya hajmini, uy-joy qurilishning tuzilishi va hajmining rivojlanish darajasini, ilmiy-texnikaviy yutuqlar, narxlar va boshqa ko'plab sohalardagi iqtisodiy siyosatni tanlash va asoslash bilan bog'liqdir. Bozor munosabatlari sharoitida uy-joy qurilishini boshqarishning muhim iqtisodiy muammolaridan biri, uning barqaror o'sishini rag'batlantiruvchi omillarni har tomonlama o'rganishdir:

1. importga qaramlikni bartaraf etish maqsadida qurilish materiallari, ehtiyot qismlari va konstruksiyalarini bevosita O'zbekistonda mahalliyashtirish bo'yicha dasturlarni amalga oshirish;

2. uy-joy qurilishini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishish maqsadida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi qoidalarini to'liq amalga oshirish;

3. aholini arzon uy-joy va kvartiralar bilan ta'minlash maqsadida uy-joy bozorida raqobat muhitini rivojlantirish;

4. moliyalashtirish hajmiga o'zaro bog'liq bo'lgan investitsiya dasturlarini hujjat sifatida amalga oshirish muddati, shuningdek, investitsiya jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy nuqtai nazardan asoslash. [3]

**XULOSA (ЗАКЛЮЖЕНИЕ/CONCLUSION).** Uy-joy siyosatida milliy modelini o'rganishda uy-joy to'g'risidagi qarorlar muhim o'rin tutadi. Ushbu rasmiy hujjatlar uy-joy boshqaruvi tashkilotlari, uy-joy siyosati va ularni moliyalashtirish, shahar va qishloqlarda uy-joy qurilishi jarayonlari, uy-joy va qurilish materiallari bilan bog'liq masalalarni tarixiy tadqiqot usullari orqali tahlil qilishga ham yordam beradi.

Fikrimizcha, uy-joy siyosatining milliy modelini ishlab chiqishda aholining shaxsiy uy-joyga ega bo'lish mentaliteti va investitsiya doiralarning davomiyligini hisobga olish juda muhimdir. Ushbu muammoning murakkabligi, kengligi va ko'p qirraliligi uni hal qilishda kompleks, tizimli yondashuvdan foydalanishni talab qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2021-yil 17-avgustdagi maxsus son 5-bet

2. Davletov I. X. Modernizatsiya qilishda uy-joylarni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari. -Toshkent: Fan va texnika, 2012. - 200 b.

3. Davletov Islambek "Modeling And Optimizing The Structure Of Housing Construction In Uzbekistan" Palarch's Journal Of Archaeology Of Egypt/Egyptology 2020. 3634-3636 betlar

4. Imomov N. "Uy-joy huquqi" Toshkent, 2013. 44-45 betlar

5. Matyakubov Nurbek Mustaqillik yillarida O'zbekistonda uy-joy siyosati (Normativ-huquqiy hujjatlar asosida) Zien Journal of Social Sciences and Humanities 2021. 141-143 betlar

6. Radjabova Munisa. "State Of Housing Policy In Uzbekistan" New York, International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education 2022.107-112 betlar

7. <https://1ppa.ru/uz/opportunities/federalnaya-celevaya-programma-po-uluchsheniyu-zhilishchnyh-uslovii/>